

## O'zbekiston va Ozarbayjon: ilmiy hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Milliy markazi direktori Samir Abbasov bilan Institutning yosh olimlar kengashi a'zolari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Samir Abbasov ko'p asrlik o'zbek-ozarbayjon adabiy-madaniy aloqalarini yanada rivojlantirish va yangi bosqichga ko'tarishdagi keng ko'lamli faoliyati, xususan, Nizomiy Ganjaviy, Imoddin Nasimi, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Maqsud Shayxzoda, Husayn Jovid kabi mashhur so'z san'atkorlari hayoti va ijodini O'zbekiston va Ozarbayjonda keng targ'ib va tashviq etish, asarlarini tarjima qildirish va chop ettirishdagi alohida xizmatlari uchun O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan faxriy diplom va qator kitoblar bilan taqdirlandi.



Samir Abbasov o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqlari haqida, bugunga qadar Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Milliy markazi tomonidan bu borada amalga oshirilgan ishlar, qilinishi rejalashtirayotgan loyhalar to'g'risida gapirar ekan, "O'zbekcha-ozarbayjoncha va Ozarbayjoncha-o'zbekcha" lug'atning nashr qilinayotganligi haqida yig'ilganlarni xabardor qildi. Bundan tashqari, o'zbekistonlik tadqiqotchilarning Ozarbayjonda bir, ikki va uch oylik malaka oshirishi uchun tanlovlар e'lon qilingani, kelajakda O'zbekiston matbuotida Ozarbayjon bilan bog'liq materiallarning "Yilning eng yaxshi maqolasi" nominatsiyasi bo'yicha birinchi, ikkinchi, uchunchi o'rinni qo'lga kiritadigan g'oliblari Milliy markaz tomonidan diplom, sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi va eng muhimlardan biri Ozarbayjonning Boku shahriga (bir haftalik seminarga) yo'llanma berilishi haqida ma'lumotlar berdi. Uchrashuv ko'tarinki, qizg'in ruhda o'tdi.

